

# THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

## VOLUME-3, ISSUE-6

### Kitobxonlik va uning bolalar tarbiyasidagi ro'li.

#### Toxirova Durdona Qodir Qizi

Termiz davlat universiteti Milliy libos va sa'nat fakulteti Kutubxona-axborot faoliyatlarini  
yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://toxirovadurdona580@gmail.com>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mакtab yoshigacha va mакtab yoshidagi bolalar ta'lism tarbiyasida kitobxonlikni naqadar katta o'rин tutishi haqida kitobxonlikka qiziqish uyg'otishga doir chora tadbirlar to'g'risida so'z yuritiladi. Qolaversa, bolalar kitobxonligi, ota-onalarning kitob o'qishlarini bolalar tarbiyasiga ta'siri, bugungi kunda bolalar, yoshlari, balkim butun xalq, millat o`rtasida kitobxonlikni davr talablariga mos holda rivojlantirishga doir masalalar yoritilib beriladi.

**Tayanch so'zlar.** Kitob, kitobxonlik, mutolaa, bolalar tarbiyasi, ota-onsa munosabati, she'r, maqol, topishmoq, bolani rag'batlantirish, maktabgacha ta'lism, kichik yoshdagi kitobxonlar, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlar, ertaklar, yoshlari kitobxonligi.

“O'qimagan kishi uchun hech bir kitob yozilmagan,  
Tinglamagan kishi uchun hech bir hikmat aytilmagan.”

(Shamsi Tabriziy)

Ta'lism-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lism-tarbiya berish, ularda fan asoslariiga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Bola qalbi murg'ak va beg'ubor, bamisol bir oppoq qog'oz desak adashmagan bo'lamic. Bola ulg'ayar ekan qog'ozga tasvirlar tushib boraveradi. Tasvirlarni esa qanchalik chiroyli, aniq va rang-barang bo'lishi bolaning ota-onasi va yaqinlariga bog'liq, albatta. Chunki hech bir inson zoti tug'ulganidanoq yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ulmaydi. Yaxshilik yoki yomonlik shuningdek boshqa fazilat va odatlar ham inson go'daklik chog'idanoq shakillana boshlaydi va hayoti davomida shakillanadi.

Farzandining kelajagiga hamda kamolotiga hech bir ota-onsa befarq bo'lmasa kerak. Shu sababdan ham bolalarni yoshlik chog'idan boshlab to'g'ri tarbiya qilib unga yaxshi va yomonni farqini foydali narsalarni tanitish lozim. Oddiy misol keltiradigan bo'lsak, juda kichik yoshdagagi bolalar ham hozirgi kunda telefon va internet nimaligini bilishadi, kattalardanda ko'proq tushunishadi. Chunki yosh bola qiziquvchan bo'ladi va taqlid qilish ularda odatiy holat, qayerdadir va kimdandir ko'rgan, o'rgangan bo'lishi mumkin.

Bolalarni yoshligidan fikrlashini kengaytirib, ularni o'z kelajagini o'zlarini mustahkam, porloq qilib qurishlari uchun ularni tayyorlash ota-onanining assosiy vazifasi emasmi?! Buning uchun ularni kitobga oshno qilishimiz to'g'ri, menimcha.

Yoshligidan ko'proq multfilm ko'rib katta bo'lgan boladan ko'ra, ertak tinglab katta bo'lgan bola ziyrakroq va fikrlash doirasi kengroq bo'ladi. Negaki, multfilmlarda aynan qahramon ko'rsatilgan, ularning ko'rinishi, bo'y basti ekranda tasvirlab berilgan bo'ladi. Lekin ertak tinglaganda u faqatgina muallif tomonidan so'zlar yordamida tasvirlanadi va uni tinglagan

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-6

bolaning ko'z o'ngida qahramon yaraladi, aniqrog'i o'zi hayolida chizadi, yaratadi. Bu bilan men multfilmlarni qoralamoqchi emasman chunki har bir narsaning o'z o'mni bor.

Farzand vaqtini otasidan ko'ra ko'proq onasi bilan o'tkazadi. Ota oilani rahbari, oiladagi harajatlar kam-u ko'st uchun ham ko'proq ishlashi kerak. Shu sababli ham vaqtining katta qismi ishda o'tadi. Bolaning tarbiyasi faqat onaga bog'liq degan fikr mutloq to'g'ri emas. Lekin yosh avlod tarbiyasi ko'proq onalarimizga bog'liq.

"Aytishingiz mumkin," Onalar kun bo'yи uy ishlaridan ortmaydi, ularni ham bekorchi vaqtleri ko'p emas axir". Shoshilmang! Nima, farzandingizning tarbiyasi siz uchun oxirgi o'rindami? Menimcha, unday emas, to'g'rimi?

Farzand tarbiyasi hamma narsadan ustun! Ayollar oddiy ro'zg'or ishlarini qilishayotgan vaqtida farzandiga:" Bor o'ynab tur ,halaqit berma"- demasdan, "Kel bolam birga shulurni qilaylik ,sen bilan suhbatlashsan ancha kayfiyatim ko'tariladi"deyishsa yaxshiroq bo'lardi. Ish jarayonini o'zida ham" Kel sanashni o'rganamiz, topishmoqlar topish o'ynaymiz, maqollar o'rganamiz desalar yoki birorta qo'shiqnini birga hirgoya qilishsa murg'ak qalb egasi bo'l mish farzandning jarayonni o'zida bilim olishini ta'minlagan bo'lishardi. Vaqtini farzandingiz bilan o'tkazishingizni ko'plab usullari bor: ish jarayonida bolani yordamidan foydalanish,oddiy narsalar uchun ham bolani rag'batlantirish. Bular orqali siz farzandingizni o'ziga bo'lgan ishonchini oshirasiz, oilasiga bo'lgan ortiqcha qo'rquvlarini yengishiga, vaqtini maroqli o'tkazishiga erishasiz va shu bilan birga mehnatga o'rgatasiz, ish bajarish qobilyatini oshirasiz. Qolaversa hech bo'limganda bitta maqol yoki topishmoq o'rganishlari mumkin. Bular siz uy yumushlari bilan shug'ulanayotgan vaqtingizda yoshiga mos bo'limgan kino tomosha qilishi, telefon o'ynashidan ancha yaxshi va foydali. Ammo faqat bular bilan cheklanib qolmay, farzandingiz uchun qiziqrli narsalar o'ylab topishingiz mumkin. Masalan ular bilan birgalikda o'tirib rasmlar chizsangiz bo'ladi. Oddiygina kichkintoyingizga o'qib bergen kitobingizdagi yoqtirgan qahramonlarini chizishini aytarsiz va o'zingiz ham chizishingiz mumkin. Asosiy narsalardan bittasi shundaki, dilbandingiz bilan suhbat jarayonida bolalardek beg'uborlik bilan muomilada bo'ling, erklang, rag'batlantiring. Rag'batlantirish deganda sayrlarga olib chiqish, nimadir sovg'a qilish kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Lekin bu gaplar faqat gapligicha emas amalda ham bo'lishi kerak. Chunki bola sizni gaplaringizga ishonib aytganingizni qiladi siz esa vadangizda turmasangiz sizga bo'lgan ishonchi kamayadi. To'g'ri oilada har qanday vaziyat bo'ladi moddiy tomondan imkon bo'lmas, lekin kechki sayrni samimi suhbat bilan mahallani ko'chalarida ham qilsa bo'ladi. Asosiysi siz farzandingizni rag'batlantirasiz. So'ngra yana u she'rlar yodlashga, ularni sizga aytib berib, rag'bat olishni, maqtovlar eshitishni hohlaydi va oddiygina she'r yodlash orqali ham bolani kitobga do'st qila olishimiz mumkin.

Otalar esa ishdan charchab kelgan vaqtida ham farzandi uchun hech bo'limganda haftada bir marotaba uning yoshiga mos bo'lgan, soddaroq kitoblardan olib kelib sovg'a qilsalar juda ham ajoyib bo'lar edi. "Oying bilan birga o'qiysizlar, bu senga bolam!", "Aqilli bola bo'lyabsanmi?", "Qani bugun nimalarni o'rganding , o'tgan safar sovg'a qilgan kitobim yoqdimi?", "Kelasi safar qanday kitoblar sovg'a qilishimni hohlaysan?" deyishsa nur ustiga a'llo nur bo'lar edi. Dilbandingizga esa qanchalar yaxshi ta'sir qiladi.

Aytgancha, bu yerda e'tiborni kitobni to'g'ri tanlay bilishga ham qaratish kerak. Bekorga aynan soddaroq kitob demadim, sababi oddiygina yosh bolani ovqatlayotgan vaqtida ko'p ovqatni idishga to'ldirib, unga bezak bermasdan oldiga qo'ysangiz ishtahasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xuddi shunday kitobni ham hajmi katta bo'limgan soddaroq va rasmi,

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-6

rangli kitoblar tanlansa, bola uni ranglari va rasmlariga qiziqib ham yaxshi ko'rib qoladi. Onasi bu kitobni qiziqtirib, o'qib-o'rgatsa kitobga yanada mehr qo'yadi. Axir bizning maqsadimiz ham shunday emasmi?! Agar kitobni yoshiga mos bo`lidan va hajmi katta bo`lgan kitob tanlansa bola unga qiziqlaydi, shu sababdan ham kitobni to'g'ri tanlay bilish kerak. Farzandning jismonan baquvvat, sog'lom bo'lishi uchun to'g'ri ovqatlanib, foydali mahsulotlar iste'mol qilishi kerak bo`lganidek, ma'nani yetuk, komil shaxs bo'lishi uchun kitob mutolasining o'rni katta.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning holatini o'rganish dolzarb masala hisoblanib, umuman bolalarning yosh xususiyatlarini psixologiya fani o'rganadi. Kitobxonlik esa uning xulosalarga tayanib, bolalarning kitob o'qishicha, ularning yosh xususiyatlarini qanday kitoblarni o'qish o'rganishga ta'sir etadi. Shunday qilib maktabgacha yoshdagagi bolalarda, umuman bolalarda kitobga bo`lgan qiziqlashni uyg'otishda psixologiyaning ham o'rni beqiyosdir.

Men bo'lajak kutubxonachi kadr sifatida shuni ayta olamanki, biz hammamiz birlashib chin dildan harakat qilsak o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi uchun avvalo o'zimini tarbiya qila olsak, albatta O'zbekistonimizda yetuk ma'naviyatli kitobxon yoshlar, bolalar safi oshsa oshadiki aslo kamaymaydi. Aziz ota-onalar, vaqtinigizni bekorchi narsalarga internetdagi keraksiz sahifalarga sarf etgandan ko'ra ko'proq farzandingizni ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishingizni so'rab qolar edim. Yosh nihollarga, murg'ak qalblarga qancha mehr, e'tibor bersak shuncha o'z.

### Foydalilanigan adabiyotlar (REFERENCES)

1. Maktabgacha ta'limning davlat standard. O'zPFITI. T., 1995.
2. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm,ziyo,2006
3. J.G'. Yo'ldashev —Interfaol ta'lim sifat kafolati O'MOI T-2007
4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi,1993.
5. Z.Nishanova, G.Alimova. —Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi.T., 2006-y. 10 b.t.
6. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari", T.: 2013-y.
7. Asqarov, I. B (2017). Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tadqiqot faoliyati uchun tayyorlashning asosiy bosqichlari. Sharqiy Evropa ilmiy jurnali.
8. Аскаров, И. Б. (2017). Управление и планирование процессом формирования исследовательских умений и навыков будущих преподавателей профессионального образования. Школа будущего, 10-15.